

SAN'AT MAKTABLARI — MA'NAVIY TARAQQIYOT VA IJODIY SALOHIYATNING ASOSIY OMILI

Urinbayev Isroiljon Kadirjonovich,
*Andijon davlat universiteti, "Tasviriy va
amaliy san'at" kafedrasida katta o'qituvchisi.*
G-mail:israil0109@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda san'at maktablarining jamiyat ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi o'rni, ularning ta'lim tizimidagi o'ziga xos funksiyalari, mustaqillikdan keyingi rivojlanish bosqichlari, so'nggi yillardagi islohotlar va ularning samaradorligi ilmiy tahlil qilinadi. Aholi sonining tez o'sishi, ta'lim tizimidagi modernizatsiya jarayonlari, ijodiy industriyaning kengayishi va madaniy diplomatiyaning kuchayishi sharoitida san'at maktablarining strategik ahamiyati yoritiladi. Yakunda tizimni modernizatsiya qilish bo'yicha takliflar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: san'at maktablari, ma'naviy taraqqiyot, ijodiy salohiyat, estetik tarbiya, milliy qadriyatlar, ta'lim tizimi, ijodiy tafakkur, ustoz-shogird an'anasi, badiiy ta'lim, yosh ijodkor.

Аннотация. В данной статье научно анализируется роль художественных школ в духовно-культурном развитии общества Узбекистана, их специфические функции в системе образования, этапы развития после обретения независимости, а также реформы последних лет и их эффективность. В условиях быстрого роста численности населения, процессов модернизации системы образования, расширения творческих индустрий и усиления культурной дипломатии освещается стратегическое значение художественных школ. В заключение рассматриваются предложения по модернизации системы.

Ключевые слова: художественные школы, духовное развитие, творческий потенциал, эстетическое воспитание, национальные ценности, система образования, творческое мышление, традиция наставничества, художественное образование, молодой творец.

Abstract. This article provides a scholarly analysis of the role of art schools in the spiritual and cultural development of society in Uzbekistan, their specific functions within the education system, the stages of development after independence, as well as recent reforms and their effectiveness. In the context of rapid population growth, modernization processes in education, the expansion of the creative industries, and the strengthening of cultural diplomacy, the strategic importance of art schools is highlighted. The article concludes with proposals for the modernization of the system of art education.

Keywords: art schools, spiritual development, creative potential, aesthetic education, national values, education system, creative thinking, master-apprentice tradition, art education, young creators.

Kirish. O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy hayotida badiiy ta'lim, xususan san'at maktablari, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti va ijodiy salohiyatini shakllantirishda strategik ahamiyatga ega. Globallashuv kuchaygan, axborot oqimi keskin tezlashgan hozirgi davrda yoshlarning estetik didi, ma'naviy immuniteti va madaniy ongini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Demografik o'sish, urbanizatsiya va ta'lim tizimidagi modernizatsiya jarayonlari san'at maktablarining rolini yanada oshirmoqda. Respublikamizdagi aholi soni 38 milliondan oshgani hamda yoshlar ulushining yuqoriligi badiiy ta'lim tizimiga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytiradi. Shu bois san'at maktablarining bugungi holatini tahlil qilish, ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini aniqlash va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash dolzarb vazifalardan biridir.

Tadqiqotning maqsadi — O‘zbekistondagi san‘at maktablarining ma‘naviy taraqqiyot va ijodiy salohiyatni rivojlantirishdagi o‘rnini tahlil qilish, tizimning hozirgi holatini baholash va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashdir.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda san‘at va madaniyat qadimiy an‘analarga ega. Sharq miniatyura maktablari, xattotlik, naqsh, musiqa, raqs va amaliy san‘at kabi yo‘nalishlar asrlar davomida ustoz-shogird tizimi asosida rivojlangan. Kamoliddin Behzod, Ahmad Donish, Usto Mumin, Chingiz Ahmarov singari san‘atkorlar yaratgan maktablar bugungi badiiy ta‘lim tizimining poydevorini tashkil etadi.

XX asrda badiiy ta‘lim davlat tizimi sifatida shakllandi: musiqa maktablari, san‘at maktablari, maxsus internatlar va oliy madaniyat muassasalari tashkil etildi. Mustaqillikdan so‘ng milliy merosga qaytish, an‘anaviy san‘at yo‘nalishlarini tiklash hamda zamonaviy san‘atni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi doirasida san‘at ta‘limi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida belgilanib, san‘at maktablari nafaqat ta‘lim muassasasi, balki ma‘naviy barqarorlikni ta‘minlovchi strategik institutga aylandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda san‘at maktablarining jamiyatdagi o‘rni va ularning ma‘naviy-ijodiy taraqqiyotga ta‘siri nazariy va empirik yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar tahlili, me‘yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rganish, statistik ma‘lumotlarni qiyosiy tahlil qilish hamda kuzatuv metodlaridan foydalanildi.

Shuningdek, tizimli va qiyosiy tahlil orqali san‘at maktablarining hududiy rivojlanish darajasi, moddiy-texnik bazasi va o‘quv jarayonidagi muammolar aniqlandi. Olingan natijalar asosida umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish usullari qo‘llanildi.

Tahlillar va natijalar. San‘at inson ruhiyatiga bevosita ta‘sir qiluvchi kuchga ega bo‘lib, yoshlarning ma‘naviy-axloqiy shakllanishida muhim omil hisoblanadi. San‘at maktablarida ta‘lim olayotgan o‘quvchilar go‘zallikni idrok etish, badiiy tafakkur orqali voqelikni anglash, his-tuyg‘ularini boshqarish va jamiyatga nisbatan mas‘uliyat hissini rivojlantiradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, san‘at bilan muntazam shug‘ullangan bolalarda empatiya, sabr-toqat va ijtimoiy moslashuvchanlik yuqori bo‘ladi.

Estetik tarbiya — shaxsning go‘zallikni anglash, qadrlash va yaratish qobiliyatini shakllantiruvchi jarayon bo‘lib, san‘at maktablarining asosiy vazifalaridan biridir. U quyidagi yo‘nalishlar orqali amalga oshiriladi:

- Badiiy-amaliy mashg‘ulotlar: rang, shakl, ritm, kompozitsiya kabi elementlarni o‘zlashtirish orqali estetik ong shakllanadi.
- Badiiy meros bilan tanishtirish: miniatyura, naqsh, xattotlik, milliy musiqa va raqs orqali o‘quvchilar milliy san‘at mezonlarini o‘zlashtiradi.
- San‘at asarlarini tahlil qilish: asarning mazmuni va badiiy ifoda vositalarini o‘rganish orqali estetik fikrlash rivojlanadi.

– Ijodiy jarayonda ishtirok etish: o‘quvchi o‘z ichki dunyosini badiiy obrazlar orqali ifodalab, estetik tarbiyaning eng samarali shaklini boshdan kechiradi.

San‘at maktablarida o‘qitiladigan miniatyura, naqsh, xattotlik, dutor, tanbur, milliy raqs singari yo‘nalishlar yoshlarni o‘z xalqining badiiy tafakkuri bilan tanishtiradi. Bu esa



ularning ongida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotirani asrash va madaniy merosga hurmat tuyg‘ularini mustahkamlaydi. Ustoz-shogird an‘anasi, milliy bayramlar, badiiy ko‘rgazmalar va folklor dasturlari ushbu jarayonning muhim qismini tashkil etadi.

San‘at maktablari jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatadi: san‘at bilan shug‘ullangan yoshlar ijtimoiy hayotda faolroq ishtirok etadi, ijodiy faoliyat stressni kamaytiradi va agressiyani pasaytiradi, turli ijtimoiy qatlamlardan kelgan bolalar bir maydonda birlashtirilib, ijtimoiy tenglik va bag‘rikenglik shakllantiradi.

Ijodiy tafakkur — bu shaxsning yangicha fikrlash, noodatiy yechimlar topish va badiiy obrazlar yaratish qobiliyatidir. San‘at maktablarida o‘quv jarayoni asosan amaliy mashg‘ulotlarga asoslangan bo‘lib (darslarning 60–70 foizi), bu o‘quvchilarning kreativ kompetensiyalarini tabiiy ravishda shakllantiradi. Badiiy tajriba orttirish, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar va san‘at asarlarini tahlil qilish — ijodiy tafakkurni rivojlantirishning asosiy mexanizmlaridir.

O‘zbekiston san‘at maktablarida ustoz-shogird an‘anasi hali ham asosiy pedagogik model sifatida saqlanib qolgan. Bu an‘ana individual yondashuv, mahoratni bevosita ko‘rsatish va shaxsiy tarbiya kabi afzalliklarni o‘z ichiga oladi. Ustozning shaxsiy namunasi o‘quvchi uchun eng kuchli motivatsiya manbai bo‘lib qolaveradi.

San‘at maktablari iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularning salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim institutdir. Tanlovlar, ko‘rgazmalar, ijodiy festivallar va grantlar orqali

aniqlangan iqtidorli o'quvchilar O'zDSMI, Kamoliddin Behzod nomidagi institut yoki xorijiy san'at oliygohlari kabi nufuzli muassasalarga yo'naltiriladi.

Globalashuv fonida ijodiy industriya — iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan sohalaridan biridir. San'at maktablari bitiruvchilari tasviriy san'at, dizayn, animatsiya, kino va teatr, musiqa industriyasi, raqamli san'at kabi sohalarda asosiy kadrlar bazasini shakllantirmoqda. Ularning iqtisodiy ahamiyati ijodiy mahsulotlar eksporti, turizmni rivojlantirish va yangi ish o'rinlari yaratishda namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda Respublikamizda 325 ta bolalar musiqa va san'at maktabi, shuningdek 40 dan ortiq ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatlari faoliyat yuritmoqda. Yaqin o'tmishda ularning hududiy taqsimoti demografik ko'rsatkichlar bilan mutanosib emas: Toshkent shahri, Farg'ona vodiysi, Samarqand va Buxoro viloyatlarida maktablar soni ko'p bo'lsa, Qoraqalpog'iston, Jizzax, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida keskin tanqislik mavjud bo'lib, qishloq hududlarida esa infratuzilma zaif, o'quvchilar qamrovi past edi.

Mavjud maktablar o'sib borayotgan talabni to'liq qondira olmasdi: ayrim hududlarda bir maktabga 600–800 nafar o'quvchi to'g'ri kelib, bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'quv dasturlari sohasida ham bir qator muammolar mavjud: ko'plab dasturlar 10–15 yil avval ishlab chiqilgan bo'lib, media-art, raqamli dizayn va animatsiya kabi zamonaviy yo'nalishlarni qamrab olmaydi. Pedagogik salohiyat jihatidan esa yosh o'qituvchilar ulushi past, ko'plab ustozlar pensiya yoshiga yaqin; zamonaviy metodikalar bo'yicha trening va moddiy rag'batlantirish imkoniyati cheklangan. Moddiy-texnik baza hududlar bo'yicha keskin farq qilib: pianino, skripka, dutor singari asboblarning ba'zi maktablarda yetishmas, kompyuter grafikasi va raqamli san'at uchun texnik baza amalda yetarlicha yo'q edi.

Bu borada, ta'kidlash joizki, O'zbekiston badiiy ta'limi tizimi so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirdi. "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, pedagoglar malakasini oshirish va yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Infratuzilma sohasida minglab milliy cholg'u asboblari xarid qilindi, ko'plab maktablarda kapital ta'mirlash ishlari olib borildi, yangi binolar qurildi va ayrim maktablarda multimedia sinflari tashkil etildi. Bu o'zgarishlar o'quv jarayonining sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Islahotlarning samarasi xalqaro miqyosda ham ko'zga tashlanmoqda: o'zbekistonlik yosh ijodkorlar Venetsiya biennalesida ishtirok etdi, xalqaro musiqa tanlovlarida yuqori o'rinlarni egalladi, raqs va amaliy san'at yo'nalishlarida ko'plab mukofotlarga sazovor bo'ldi. Bu natijalar O'zbekistonning madaniy nufuzini xalqaro maydonda mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, san'at maktablarini tizimli va innovatsion yondashuvlar asosida yanada rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli qarorida quyidagi yo'nalishlar ustuvor ahamiyat kasb etgan:

1. Infratuzilmani kengaytirish: aholi soni tez o'sayotgan va qishloq hududlarda yangi maktablar qurish, mini studiyalar, dizayn laboratoriyalari va media-art xonalari tashkil etish.

2. O'quv dasturlarini yangilash: zamonaviy san'at yo'nalishlarini (dizayn, animatsiya, media-art) dasturlarga kiritish, darsliklar va metodik qo'llanmalarni zamonaviylashtirish.

3. Raqamli yo'nalishlarni rivojlantirish: kompyuter grafikasi, 3D modellashtirish, raqamli illyustratsiya bo'yicha maxsus kurslar ochish; raqamli san'at bo'yicha pedagoglar tayyorlash.



4. Pedagogik salohiyatni oshirish: yosh o'qituvchilarni jalb etish, xorijiy tajribalar- ni o'rganish imkoniyatini kengaytirish, moddiy rag'batlantirish tizimini takomil- lashtirish.

5. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish: yosh ijodkorlarni xalqaro raqamli va klassik san'at platformalariga integratsiya qilish, xorijiy san'at muassasalari bilan almashinuv dasturlarini yo'lga qo'yish.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, san'at maktablari O'zbekistonning ma'naviy, madaniy va ijodiy taraqqiyotida hal qiluvchi o'rin tutadi. Ular yosh avlodning badiiy tafakkurini rivojlantiradi, milliy madaniyatni asraydi, ijodiy industriyaga kuchli kadrlar tayyorlaydi va jamiyatning ma'naviy immunitetini mustahkamlaydi. Taklif etilgan modernizatsiya yo'nalishlari amalga oshirilsa, san'at maktablari "O'zbekiston-2030"

strategiyasining ma'naviy-ma'rifiy maqsadlariga to'liq xizmat qiluvchi kuchli institutga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038 -sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 21 apreldagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4688-sonli qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.02.2022 yildagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026 yil 16 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgattirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 175-sonli qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi statistik ma'lumotlari (2020–2024).
6. Temirov Murodjon Anvarovich. "BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHIDA TASVIRIY SAN'ATNING O'RNI" Science and innovation, vol. 3, no. Special Issue 31, 2024, pp. 391-394. doi:10.5281/zenodo.11206181
7. Urinbayev, Isroiljon Kadirjonovich, and Baxodir Ulmasovich Quchqarov. "YOSHLARNING MILLIY MADANIYAT ASOSIDA MANTIQUIY FIKRLASHINI VA MILLIY TAFAKKURINI O'STIRISH." Oriental Art and Culture 5.3 (2024): 466-474.

Ajiniyaz atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934